



HUDUDLARNI IJTIMIY IQTISODIY RIVOJLANTIRISH LOYIHALARINI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

SAPAROV ELMUROD DONABAYEVICH

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti mustaqil izlanuvchisi

Email: elmurod_saparov@inbox.ru

Orcid: <https://orcid.org/0000-0003-2938-1145>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida yangi amaliyot sifatida shakllanib borayotgan davlat-xususiy sherikchilik (DXSh) asosida amalga oshirilgan loyihalarning mazmuni, samaradorligi va amaliy natijalari tahlil qilingan. Shuningdek, davlat-xususiy sherikchilikni qo'llab-quvvatlash, uning institutsional asoslarini mustahkamlash hamda faoliyatini tartibga solish bo'yicha amal qilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar chuqur o'rganilgan. Tahlillar asosida DXSh mexanizmlarining hududiy rivojlanish, ijtimoiy soha samaradorligini oshirish va davlat byudjeti yuklamalarini optimallashtirishdagi o'rni bo'yicha asosli xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sherikchilik, davlat byudjeti, ijtimoiy soha, sog'liqni saqlash, investitsiya loyihalari.

Abstract: This article analyzes the projects implemented in the Republic of Uzbekistan through the emerging practice of public-private partnership (PPP). It examines the effectiveness, structure, and outcomes of PPP-based initiatives, as well as the regulatory and institutional framework that governs their implementation and support. Based on the conducted analysis, the study highlights the role of PPP mechanisms in enhancing social sector performance, optimizing public budget expenditures, and expanding investment opportunities in the country.

Keywords: public-private partnership, state budget, social sector, healthcare, investment projects.

Абстрактный: В статье представлен анализ проектов, реализованных в Республике Узбекистан на основе государственно-частного партнёрства (ГЧП), которое формируется как новая современная практика управления и финансирования инфраструктурных и социальных инициатив. Рассмотрены нормативно-правовые документы, регулирующие поддержку, организацию и функционирование механизмов ГЧП. На основе проведённого анализа сформулированы выводы о роли партнёрства в повышении эффективности социальной сферы, оптимизации расходов государственного бюджета и расширении инвестиционных возможностей.

Ключевые слова: государственно-частное партнёрство, государственный бюджет, социальная сфера, здравоохранение, инвестиционные проекты.

Kirish (Introduction/Введение).

Budjet cheklovlari, davlat qarzlarning mavjudligi va zaruriy mablag'larning yetishmasligi, aksariyat hollarda kam daromadli mamlakatlarda va rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma ehtiyojlarini moliyalashtirish uchun muqobil usullarni izlashga intilish bu tabiiy holdir. Bunday muqobil moliyalashtirish manbai sifatida so'nggi yillarda O'zbekistonda infratuzilmaga kiritilayotgan investitsiya bilan bog'liq faoliyatni qo'llab-quvvatlash mexanizmi sifatida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modeli tobora omalashib bormoqda. Xususiy xo'jalik yurituvchi korxonalarda iqtisodiy va siyosiy tavakkalchilik darajasi yuqori bo'lgan xolatda davlat va xususiy sheriklar uchun loyihada ishtirok etish qarorini ijobiy qabul qilinmasligi mumkin. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ko'p hollarda DXSh loyihalarini amalga oshirish muhim omil sifatida qaraladi. Shunga qaramay, DXSh loyihadlarining mamlakatni iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati to'liq o'rganilmagan bo'lib qolmoqda.

Bugungi rivojlanish jarayonlarida O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 maydagi "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5430-sonli tarixiy Farmoni va oxirgi ikki yilda qabul qilingan boshqa me'yoriy - huquqiy hujjatlar nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini yanada rivojlantirish, ularning mustaqilligini ta'minlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir (PQ-5430, 2018).

Nodavlat notijorat tashkilotlari hamda davlat organlari o'rtasidagi munosabatlarni bugungi islohotlar talablariga muvofiq rivojlantirish zaruriyatidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunning yangi tahrirda ishlab chiqish mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlari bilan davlat

o'rtasidagi hamkorlikni ijtimoiy sheriklik asosida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot maqsadi va usullari (Research objective and methods, Цель и методы исследования).

Maqolaning tarkibiy tuzulishidagi adabiyotlar sharhida davlat-xususiy sherikchilikni tartibga soliq bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilingan. Shuningdek, 2020-2023 yillar kesimadgi davlat-xususiy sherikchilik asosida amalga oshirilgan loyihalarning solishtirma tahlillar hamda aynan qaysi sohalarga yo'naltirilganligi tahlili amalga oshirilgan. Ushbu tahlillar uchun analiz va sintez usullaridan foydalanilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi (Literature review, Анализ литературы).

Davlat xususiy sherikchilik amaliyoti yaqin yillardan amalda tadbir qilingan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 8 mayda qabul qilingan qarori dastlabki me'yoriy-huquqiy hujjat hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida Davlat xizmatlari agentligi tashkil qilinishi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonalarini va Davlat xizmatlari markazlari "Xalq qabulxonasi" yagona brendi ostida birgalikda faoliyat olib borishi, jumladan fuqarolarga qulaylik yaratish uchun ularning bir binoga joylashtirilishi maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tuman (shahar)lardagi xalq qabulxonalarini huzuridagi davlat xizmatlari markazlari binolarining davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida qurilishini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3701-sonli qarori qabul qilingan (PQ-3701, 2018).

Bundan tashqari, Maktabgacha ta'lim tizimini, shu jumladan, maktabgacha ta'lim jarayonining nodavlat sektorini yanada rivojlantirish, maktabgacha ta'lim muassasalarining tarmog'ini kengaytirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan kengroq qamrab olishni ta'minlash va maktabgacha ta'lim sohasida

davlat-xususiy sheriklik uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 25 iyundagi "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 475-sonli qarori qabul qilingan (VM-475, 2018).

Shuningdek, ijtimoiy sohaning madaniyat va sport yo'nalishlari bo'yicha ham bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Madaniyat va san'at muassasalari binolarini qurish va ta'mirlash, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, hududlarini obodonlashtirish, aholining madaniy ehtiyojlarini qondirish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun davlat-xususiy sheriklik uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 1 avgustdagi PQ-3892-sonli qarori qabul qilingan. Bunda asosiy vazifalar sifatida madaniyat va san'at yo'nalishidagi nodavlat muassasalarining binolarini qurish uchun davlat sherigiga doimiy foydalanishga berilgan yer uchastkalarini bepul asosda ijaraga berish (PQ-3892, 2018);

mavjud davlat madaniyat va san'at muassasalari binolarini rekonstruksiya qilish va jihozlash, keyinchalik esa ularni o'talikka olish sharti bilan madaniyat va san'at yo'nalishidagi nodavlat muassasalari obyektlarini qurish uchun davlat sherigiga doimiy foydalanishga berilgan yer uchastkalarini bepul asosda ijaraga berish;

bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini, shu jumladan faoliyat ko'rsatmayotgan davlat madaniyat va san'at muassasalarining binolarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda "nol" xarid qiymatida sotish va boshqalar belgilab berildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy tibbiyot tashkilotlarini rivojlantirishga doir qo'shimcha sharoitlar tashkil etish to'g'risida" 2017-yil 29-dekabrda PQ-3450-sonli qaroriga muvofiq hamda sog'liqni saqlash tarmog'iga ajratiladigan budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish, laboratoriya diagnostikasi sohasiga eng yangi texnologiyalarni jalb etish yo'li bilan aholini sifatli laboratoriya-diaagnostika xizmatlari bilan ta'minlash, laboratoriya axborotlari tizimini joriy etish, laboratoriya tadqiqotlari sifatini nazorat qilish tizimini modernizatsiyalash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 17 avgustida "Davlat-xususiy sheriklik asosida markazlashtirilgan klinika-diaagnostika laboratoriyasi tashkil etish to'g'risida"gi 674-sonli qarori qabul qilingan. Bunda, Toshkent shahrida tajriba tariqasidagi markazlashtirilgan klinika-diaagnostika laboratoriyasi tashkil etish to'g'risida "YaKDL" UK MCHJ bilan bevosita muzokaralar asosida konsession shartnoma tuzish belgilangan (VM-674, 2018).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 5-apreldagi PQ-3651-sonli qaroriga belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash, maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 22 noyabrda "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklik shakllarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 944-sonli qarori qabul qilingan. Asosiy vazifalar sifatida xususiy sherikka tegishli yer va bino-inshootlarda nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil etish shaklidagi davlat-xususiy sheriklik xususiy sherikning tashabbusi bilan taqdim etilgan hujjatlarni o'rganish asosida tanlov o'tkazilmasdan to'g'ridan to'g'ri muzokaralar olib borish orqali amalga oshiriladi (VM-944, 2018).

Hamda ushbu qarorga asosan "Xususiy sherikka tegishli yer va bino-inshootlarda nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil etish shaklidagi davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlangan. Ushbu Nizom xususiy sherikka tegishli yer va bino-inshootlarda nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil etish shaklidagi davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirish tartibini belgilaydi.

Shuningdek, Nizomdagi keltirilgan ta'rif bo'yicha davlat-xususiy sheriklik - xususiy sherikka tegishli yer va bino-inshootlarda nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil etish shaklidagi davlat sherigi va xususiy sherikning aniq muddatga yuridik rasmiylashtirilgan maktabgacha ta'lim sohasidagi o'zaro samarali hamkorligi hisoblanadi. Va davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim- xususiy sherikka tegishli yer va bino-inshootlarda nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil etishga qaratilgan tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik loyihasini ijro etishning boshqa shartlarini belgilab beradigan davlat sherigi va xususiy sherik o'rtasida tuzilgan yozma shartnomadir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 13 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 1009-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu Agentlikning vazifalari


DXSh munosabatlarini tartibga solish, xususiy sherik tanlashda tenderlar o'tkazish va loyiha ijrolarini monitoring qilish, shartnomalar tuzish, ularga o'zgartirishlar kiritish va davlat ikki sherik manfaatlarini himoya qilish va shu kabi tashkiliy ishlarda davlat vakili sifatida ishtirok etishdan iborat (VM-1009, 2018).

Quyidagilar Agentlikning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning ustuvor yo'nalishlarida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo'yicha tarmoq dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;
- davlat-xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligi va afzalliklarini baholash uslubini ishlab chiqish, ushbu loyihalarni tayyorlash va amalga oshirishni uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;
- davlat-xususiy sheriklik sohasidagi loyihalarni amalga oshirishda idoralararo muvofiqlashtirishni ta'minlash, shuningdek, loyihalar to'g'risidagi axborotni ochiq holda joylashtirish va ularning reestrini yuritish;
- davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish, shu jumladan, muayyan loyihalar kontsepsiyalarini ishlab chiqishda vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari va mahalliy davlat hokimiyati organlariga ko'maklashish;
- davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish masalalarida investorlar, xalqaro moliya va donor tashkilotlari, ilmiy va ekspert hamjamiyatlari, shuningdek, bozorning boshqa ishtirokchilari bilan hamkorlikni tashkil etish;
- davlat-xususiy sheriklik loyihalari ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga har tomonlama ko'maklashish, loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari, shu jumladan, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tavakkalchiliklarni aniqlash va taqsimlash yuzasidan ularning takliflarini ko'rib chiqish;
- davlat-xususiy sheriklik loyihalarini, shu jumladan, loyihalarga jalb qilingan byudjet tizimi mablag'laridan foydalanilishini, shuningdek, tegishli tarmoqlardagi xalqaro tajribani inobatga olgan holda loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish amaliyotini monitoring qilish.

Tahlil va natijalar (Analysis and Results, Анализ и результаты).

Davlat budgetining xarajatlar tarkibiy tuzulishidagi ijtimoiy xarajatlar ulushi sezilarli darajada pasaygan. Lekin, bu fikr ajratilgan miqdorlarning kamayishini emas, balki ijtimoiy soha bilan bir qatorda boshqa soha xarajatlarini o'sganligini ta'kidlash mumkin. Davlat budgetining yirik ulushlarida davlatning markazlashtirilgan investitsion loyihalari moliyalashtirish xarajatlari egallaydi. Davlat o'zining funktsiya vazifalarining bir qismini xususiy sektorga o'tkazish va aholiga sifatli va arzon tovar-xizmatlarni taklif qilish maqsad qilingan. Va yaqin yillardan yirik ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni davlat-xususiy sheriklik amaliyoti asosida amalga oshirmoqda.




1-rasm. O'zbekiston Respublikasining 2020 yildagi DXSh loyihalarining umumiy soni haqida ma'lumot.

Manba. Imv.uz sayti hisobotlariga asosan muallif tomonidan shakllantirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi ma'lumotlariga ko'ra 2020 yil mobaynida energetika sohasi bo'yicha 11 ta, kommunal bo'yicha 6 ta, transport tarmog'ini yaxshilash bo'yicha 6 ta, sog'liqni saqlashda 19 ta, suv xo'jaligida 7 ta, ekologiya bo'yicha 16 ta va ta'lim bo'yicha 1 ta loyihalar tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda umumiy qiymati 5,8 mlrd AQSh dollaridan ortiq bo'lgan jami 66 ta davlat-xususiy sheriklik loyihalari bo'yicha ishlar olib borilgan.

Shuningdek, agentlikning 2021 yil ma'lumotlariga ko'ra jami 159 ta davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalari, jumladan energetika sohasida 1 ta, kommunal xizmatlar sohasida 1 ta, transport sohasida 1 ta, sog'liqni saqlash sohasida 17 ta, suv xo'jaligi sohasida 97 ta, ekologiya sohasida 13 ta, ta'lim sohasida 7 ta, hunarmandchilik sanoati sohasida 13 ta, madaniyat

sohasida 7 ta hamda veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish va huquqni muxofaza qilish sohaslarida 1 tadan, ya'ni umumiy qiymati 1,86 mlrd. AQSh dollaridan ortiq bo'lgan loyihalar ustida ishlar olib borilgan.




2-rasm. O'zbekiston Respublikasining 2020 yildagi DXSH loyihalarining umumiy soni haqida ma'lumot.
Manba: imv.uz saytida elon qilingan xisobotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Shundan, ijtimoiy sohalar bo'yicha sog'liqni saqlash sohasida 2021 yil davomida jami qiymati 30,96 mln. AQSh dollari bo'lgan 17 ta loyiha bo'yicha DXSh bitimi imzolangan. Bundan tashqari, joriy yil davomida ta'lim sohasida umumiy qiymati 3,28 mln. AQSh dollari bo'lgan 7 ta DXSh loyihalarini bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi va ushbu loyihalar bo'yicha DXSh bitimi imzolandi. Yil davomida madaniyat sohasida umumiy qiymati 4,87 mln. AQSh dollari bo'lgan 7 ta DXSh loyihalarini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi va ushbu loyihalar bo'yicha 7 ta DXSh bitimi imzolandi. Keyingi o'rinlarda, suv xo'jaligi bo'yicha 97 ta DXSH loyihalar jami summasi 9.6 mln AQSh dollarini tashkil etgan.

Shuningdek, 2022 yilda Respublika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish maqsadida 2022 yildan boshlab joriy etilgan davlat xususiy-sheriklik shartlari asosida talabalar turar joylarini barpo etish uchun yil davomida davlat byudjetidan DXSh shartlari asosida 16 ta talabalar turar joylarini barpo etishga 153,1 mlrd so'm yo'naltirildi.


Bundan tashqari, Agentlikning 2022 yil xisoboti bo'yicha umumiy qiymati 4,5 mlrd AQSh dollaridan ortiq bo'lgan jami 212 ta davlat-xususiy sheriklik (DXSH) loyihalar bo'yicha ishlar olib borildi. Jumladan, energetika sohasida 8 ta, sog'liqni saqlash sohasida 20 ta, suv xo'jaligi sohasida 52 ta, ekologiya sohasida 53 ta, ta'lim sohasida 48 ta, madaniyat sohasida 24 ta, bandlik va mehnat munosabatlari sohasida 2 ta, transport, kommunal xizmatlar, soliq, hunarmandchilik sanoati va huquqni muhofaza qilish sohaslarida 1 tadan DXSh loyihalar amalga oshirilmogda.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasining 2022 yildagi DXSH loyihalarining umumiy soni haqida ma'lumot.
Manba: imv.uz sayti hisobotlariga asosan muallif tomonidan shakllantirilgan.

Shu bilan birga, 2023 yilda vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda umumiy qiymati 1 mlrd 371 mln dollar bo'lgan 626 ta DXSh loyihalar bo'yicha ishlar olib borildi. Jumladan, energetika sohasida 5 ta, sog'liqni saqlash sohasida 9 ta, ekologiya sohasida 6 ta, kommunal xizmatlar sohasida 220 ta, ta'lim sohasida 37 ta, madaniyat sohasida 16 ta, suv xo'jaligi sohasida 315 ta, transport sohasida 8 ta, hunarmandchilik sohasida 4 ta, sport sohasida 5 ta, qurilish va qishloq xo'jaligi sohaslarida

1 tadan loyihalarni tashkil etdi.



4-rasm. O'zbekiston Respublikasining 2023 yildagi DXSH loyihalarining umumiy soni haqida ma'lumot.
Manba: imv.uz sayti hisobotlariga asosan muallif tomonidan shakllantirilgan.

Hamda oilaviy NMTT tarbiyachi va yordamchi xizmatlariga ish haqi to'lash hamda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun amalda belgilangan normalar bo'yicha oziq-ovqat, yumshoq ashyo va anjomlar hamda dori-darmonlarga sarflanadigan xarajatlarni qoplash uchun 2 100,1 mlrd,so'm mablag'ni moliyalashtirib bergan. Shuningdek, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari 2021 yilda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 6 330 tani tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilda 6 598 tani tashkil etgan, ya'ni 268 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tashkil etilgan.

2023 yilda ta'lim-tarbiya sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ta'lim standartlari va dasturlarini takomillashtirish, umumta'lim maktablari, professional ta'lim muassasalari va oliy o'quv yurtlarining moddiy texnik bazasini yanada mustahkamlash masalalariga katta e'tibor berildi. Xususan, ijtimoiy soha xarajatlarining asosiy qismini (44,6 foizini) tashkil etgan ta'lim tizimi muassasalarini saqlash va ularni rivojlantirish xarajatlarga Davlat byudjetidan 61,2 trln so'm yoki 2021 yilga nisbatan 21,6 trln,so'm ko'p mablag' ajratilgan. Ushbu yildagi davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan maktabgacha ta'lim muassasalariga byudjet subsidiyalari uchun 2 744,8 mlrd,so'm mablag'lar ajratilgan. 2023 yilda davlat-xususiy sherikchiligi asosida tashkil etilgan maktabgacha ta'lim muassasalariga subsidiyalar uchun 2,7 trln so'm yoki 2021 yilga nisbatan 1,4 trln so'm ko'p mablag' yo'naltirilgan.

Xulosa (Conclusion/Заключение).

O'zbekiston Respublikasidagi DXSHni qo'llab quvvatlash sohasidagi asosiy yo'nalishlar 2020 yilda energetika, suv xo'jaligi, ekologiya va sog'liqni saqlash katta ulushlarni tashkil qilgan bo'lsa, 2021 yilda sog'liqni saqlash va suv xo'jaligi yirik ulushlarni tashkil etgan. 2022 yilga kelib esa ushbu ulushlar qatoriga ta'lim va madaniyat sohalari kelib qo'shilgan. 2023 yildagi yirik ulushga ega soha suv xo'jaligi hisoblangan, kommunal sohasi keying o'rinlarni egallagan.

Ushbu yillar bo'yicha 2020 yilda 66 ta loyihalar jami qiymati 5.8 mlrd AQSH dollari tashkil etgan, amalga oshirilgan bo'lsa, 2021 yilga kelib o'shbu summa 1.86 mlrd AQSH dollari tashkil etgan, lekin loyihalar soni 159 tani tashkil qilgan. 2022 yilda ushbu qiymat va miqdor mos ravishda 4.5 mlrd AQSH dollari va 212 tani tashkil etgan. 2023 yildagi loyihalar soni 626 tani tashkil etsada, loyihalarning umumiy summasi 1,371 mlrd AQSH dollarga yetgan.

Ijtimoiy sohada DXSH amaliyotini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etishda keng qo'llanilmogda. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik amaliyoti asosida tashkil etilgan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish, qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va jihozlash uchun imtiyozli kreditlar ajratish yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga, Davlat-

xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan maktabgacha ta'lim muassasalariga ajratilgan budget subsidiyalari miqdori dinamikasi o'sish tenditsiyalarini ko'rsatmoqda. 2023 yilda ushbu summa 2.7 trln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda taxminan 2.9 trln.so'm moliyalashtirilishi rejalashtirilgan.

DXSh loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish shaffoflik va barcha ishtirokchilar huquqlarini himoya qilishni ta'minlaydigan aniq huquqiy bazani yaratishni talab qiladi. Shuningdek, DXSh loyihalari belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiqligini ta'minlash uchun ularning monitoringi va baholash mexanizmlarini yaratish muhim ahamiyatga ega.

DXShni joriy etish qulay investitsiya muhitini yaratishga qaratilgan puxta o'ylangan siyosat bilan birga olib borilishi kerak. Hukumatlar

xususiy investorlarni jalb qilish va ushlab turish uchun xavfsiz mulk huquqlarini, barqaror me'yoriy-huquqiy bazani va adolatli soliqqa tortishni ta'minlashi kerak.

Shunday qilib, iqtisodiy tizimni liberallashtirish davrida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish ijtimoiy xizmatlarni ta'minlash orqali fuqarolarning hayot sifatini oshirish va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashning qudratli vositasidir. DXShlar uchun qulay muhit yaratib, ularni amalga oshirishda shaffoflik va samaradorlikni ta'minlash orqali hukumatlar xususiy sektordan foyda olishlari va muhim ijtimoiy sohadagi mavjud muammolarni hal qilishda o'z salohiyatlarini ochishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 14-iyuldagi PQ-322-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi qonuni. Senat tomonidan. 2019 yil 3 mayda ma'qullangan. 4-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tuman (shahar)lardagi xalq qabulxonalarini huzuridagi davlat xizmatlari markazlari binolarining davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida qurilishini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3701-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2018 yil 25 iyundagi "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 475-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 1 avgustdagi PQ-3892-sonli qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy tibbiyot tashkilotlarini rivojlantirishga doir qo'shimcha sharoitlar tashkil etish to'g'risida" 2017-yil 29-dekabrda PQ-3450-sonli qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 17 avgustida "Davlat-xususiy sheriklik asosida markazlashtirilgan klinika-diagnostika laboratoriyasi tashkil etish to'g'risida"gi 674-sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2018 yil 22 noyabrda "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklik shakllarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 944-sonli qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 13 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 1009-sonli qarori.
10. Boyer & Scheller - An Examination of State-Level Public-Private Partnership Adoption: Analyzing Economic, Political, and Demand-Related Determinants of PPPs – Sage journals- 2018.
11. A guidebook on public-private partnership in infrastructure. Economic and social Commission for Asia and Pacific. Bangkok, UNESCAP, 2011, p. 76. Available at: www.unescap.org/
12. Robertson S.L., Verger A. Public private partnerships in education: New actors and modes of governance in a globalizing world. Available at: <https://www.researchgate.net/publication/292583612/>.